



XITOIY – O‘ZBEKISTON O‘RTASIDA O‘ZARO MUNOSABATLAR

Xayrullayev Daler

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10405546>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-December 2023 yil
Ma’qullandi: 15- December 2023 yil
Nashr qilindi: 19- December 2023 yil

KEY WORDS

XXR, Gomindon, provinsiya, BMT,
Manjuriya, Parlament.

ABSTRACT

Ushbu maqolani yozishdan maqsad O‘zbekisro – Xitoy o‘rtasidagi munosabatlarni ochiq tahlil qilishdir. O‘zbekiston hududi Buyuk ipak yo‘lining chorrahasi bo‘lganligi tufayli ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar bir necha ming yillik tarixga ega. Ammo birinchi Xitoy elchisi Chjan Syanning qad. Farg‘ona (Davan, Dayyuan) davlatiga kelishi mil. av. 128-yilda yuz bergan. Ushbu voqeani ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik aloqaning boshlanishi deb hisoblash mumkin. Aslida 1991-yil XXR O‘zbekiston mustaqilligini tan olgan edi.

1937-yil iyulda Yaponiya butun Xitoyni bosib olish rejasini amalga oshirishga kirishdi. Urushning birinchi oylaridayoq yaponlar Xitoyning katta qismini, jumladan, Beypin (Pekin), Tyantszin, Shanxay va boshqa shaharlarini bosib oldi. Xitoy xalkining yapon bosqinchilariga qarshi ozodlik urushi (1937—45) boshlandi. Xalqning tazyiqi ostida gomindan rahbarlari 1937-yil 23-sentabrda XKP bilan gomindan o‘rtasida hamkorlik o‘rnatilganligini ma’lum qildi. Yapon qo‘shinlari 1937-yil iyuldan 1938-yil oktabrgacha Shimoliy Xitoyning barcha hududini, Markaziy Xitoyning bir qismini, shuningdek, Janubiy Xitoyning muhim dengiz bo‘yi hududlarini bosib oldi. XKP yaponlar bosib olgan rayonlarda partizanlik harakatini keng avj oldirdi. Sovet Armiyasi o‘tkazgan Manjuriya strategik operatsiyasi (1945) natijasida Shimoliy-Sharqiy Xitoy va Ichki Mongoliya yapon militaristlaridan ozod etildi. 1945-yil 2-sentabrda Yaponiya so‘zsiz taslim bo‘ldi. 1945-yil 13-oktabrda Chan Kayshi hukumati qo‘shinlari ozod kilingan hududlarga hujum boshladi. Gomindan hukumati va XKP harbiy harakatlarni to‘xtatishga kelishgan (1946-yil 10-yanvar) bo‘lsa ham 1946-yil iyulda Chan Kayshi tarafdorlari butun mamlakat miqyosida fuqarolar urushini yana boshlab yubordi [1].

AQSH chankayshichilarga har tomonlama yordam ko‘rsata boshladi. Biroq Xitoy Xalq ozodlik armiyasi gomindanchilarga karshi muvaffaqiyatli janglar olib borib, 1948—49 yil yanvar butun Shim.Sharqiy Xitoy, Shimoliy Xitoy, Shimoli - G‘arbiy Xitoyning ko‘p qismini, Markaziy Xitoyning Yanszi daryosigacha bo‘lgan yerlarini ozod kildi. 1949-yil kuzga kelib Xitoy Xalq ozodlik armiyasi hujumni davom ettirdi va Shim.G‘arbiy Xitoy va Markaziy Xitoy, Janubiy va Jan.G‘arbiy Xitoyning katta qismini ozod qildi. Chan Kayshi to‘dasi esa Tayvanga qochdi. 1949-yil 1-oktabrda Pekinda Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) tuzilganligi e‘lon qilindi. Sharqiy Turkiston, Ichki Mongoliya va Tibet ham ushbu respublikaga kiritiddi.. XXR tuzilgach, davlatni boshqarishni o‘z zimmasiga olgan Mao Szedun boshchiligidagi Xitoy rahbariyati va XKP XXRning bosh yo‘li — mamlakatda

sotsialistik jamiyat qurish ekanligini e'lon qildi va xususiy mulkni davlat mulkiga aylantirish, qishloq xo'jaligini jamoalashtirish, sotsializmning sovet modeli negizini yaratish yo'lini tanladi. 1951-yil Xitoy hududini gomindanchilardan ozod etish (Tayvan va Penxuledaodan tashqari) tugallandi. 1952-yil XXR hukumati joylarda xalq hokimiyati organlarini tuzish, gomindanchilarni yo'qotish, yirik kapitalni musodara qilish bo'yicha katta ishlarni amalga oshirdi. 1953-yil agrar islohotlar o'tkazildi. 300 mln.ga yaqin yersiz va kam yerli dehqonlar va ularning oilalariga sobiq zamindorlar yerlari bo'lib berildi. 1953—54 yillarda mahalliy va markaziy hokimiyat organlariga umumiy saylovlar bo'ldi. 1954-yil sentabrda Umumxitoy xalq vakillari majlisining 1sessiyasi bo'lib, XXR konstitutsiyasi qabul qilindi [2].

50-yillarning 2-yarmida Mao Szedun boshchiligidagi XXR rahbarlari 1958— 60 yillarda „katta sakrash“ (besh yil mobaynida sanoat ishlab chiqarishini 6,5 marta, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini 2,5 marta ko'paytirish) yo'lini tutdilar. Barcha qishloq xo'jaligi kooperativlari „xalq kommunalari“ga aylantirildi. 1966—76 yillarda „madaniy inqilob“ amalga oshirildi. Mao Szedun shaxsiga sig'inish avj oldi. Xavfsizlik organlari va armiya ishtirokida, shuningdek, siyosiy jihatdan chiniqmagan o'quvchi yoshlar va talabalardan tuzilgan xunveybinlar („qizil qo'riqchilar“) hamda szaofanlar („g'alayonchilar“) otryadlari yordamida Mao Szedun ko'rsatmasiga binoan minglarcha mas'ul partiya va davlat xodimlari va ziyolilar ishdan olinib, surgun qilindi yoki uy qamog'ida sakdandi. Provinsiya va uyezdlarda partiya qo'mitalari va xalq tomonidan saylangan hokimiyat organlari amadda tarkatib yuboriddi va tepadan tayinlanadigan, armiya vakillari asosiy rol o'ynagan „inqilobiy qo'mitalar“ bilan almashtirildi, xalq xo'jaligidagi tanglik yanada chukurlashdi. Xitoy KPning bu siyosati (keyinchalik Xitoyda keskin tankidga uchragan) Mao Szedun vafoti (1976)dan keyin qayta ko'rib chikildi. Bunda iqtisodiy islohotlar o'tkazish orqali 21-asr o'rtalariga kelib Xitoy ni yuksak darajada rivojlangan davlatga aylantirish vazifasi qo'yildi. Korxonalarning xo'jalik yuritish faoliyatidagi mustaqilligi oshirildi, ko'p ukkladli iktisodiyotga ruxsat berildi, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish maqsadida Xitoyda „ochiq iqshsodiy rnlar“ va „maxsus iktisodiy hududlar“ tashkil etildi [3].

1990-yillarning boshlaridan Xitoy KP tomonidan amalga oshirilayotgan „sotsialistik bozor xo'jaligi“ga o'tish shakllandi. Xitoyning Buyuk Britaniya bilan tuzgan bitimi (1989)ga muvofiq Syangan (Gonkong) Xitoyga o'tdi va XXRning maxsus ma'muriy rayoni makrmini oldi. Xitoy 1971-yildan BMT a'zosi (1945-yil SanFransisko konferensiyasida BMT ustaviga gomindan hukumati vakili imzo chekkan. XXR tuzilgach, uning BMTdagi o'rnini Tayvan noqonuniy ravishda egallab kelgan, XXR esa bu tashkilotda vakillikdan mahrum qilingan edi. 1971-yil 25-oktabrda BMTning Bosh Assambleyasi XXRning qonuniy huquklarini tiklash va BMT hamda uning barcha organlaridan Tayvan vakillarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qildi). Xitoy 1991-yil 27-dekabrda O'zbekiston Respublikasi suverenitetini tan olgan va 1992-yil 2-yanvarda diplomatiya munosabatlari o'rnatgan. Milliy bayrami — 1-oktabr — Respublika e'lon qilingan kun (1949). Siyosiy partiya va tashkilotlari, Xitoy xalq siyosiy maslahat kengashi, kasaba uyushmalari. Xitoy Kommunistik partiyasi (XKP, 1921-yil tuzilgan; Bosh kotibi Xu Szintao. 50,3 mln. a'zosi bor); Gomindan inqilobiy qo'mitasi, 1948-yil asos solingan; Xitoy Demokratik ligasi, 1941-yil tuzilgan; Xitoy Demokratik milliy qurilish assotsiatsiyasi, 1945-yil tuzilgan; Xitoy Demokratiya taraqqiyotiga ko'mak beruvchi assotsiatsiya, 1945-yil tashkil etilgan; Xitoy dexkrnishchilar demokratik partiyasi, 1947-yil asos solingan; Chjungo chjigun dan (Xitoy adolatga intilish partiyasi), 1925-yil tuzilgan;

Szyusan syuye she (3-sentabr jamiyati), 1946-yil tuzilgan; Tayvan muxtoriyati demokratik ligasi, 1947-yil asos solingan; Xitoy xalq siyosiy maslahat kengashi; 1949-yil tuzilgan. Umumxitoy kasaba uyushmalari federatsiyasi, 1925-yil tuzilgan [4].

1991-yil XXR O'zbekiston mustaqilligini tan olib 1992-yil Diplomatiya munosabatlari o'rnatilgach, ikki mamlakat o'rtasida teng huquqli aloqalar o'rnatila boshladi. O'tgan 13-yil davomida ikki davlat o'rtasida 100 dan ortiq rasmiy hujjatlar imzolandi. 1992-yil 15 oktabrda Toshkentda XXR elchixonasi, 1995-yil 6 mayda Pekinda O'zbekiston elchixonasi ochildi. Shu davr davomida O'zR Prezidenti I. Karimov 4 marta (1992, 1994, 1999, 2001-yil) rasmiy tashrif bilan X.da bo'ldi. Ilk bor rasmiy tashrif bilan 1995-yil O'zbekistonga XXR Davlat kengashi boshlig'i Li Pen kelgan. XXR raisi Szyan Szemin (1996) va uning o'rnini egallagan Xu Szintao (2004)lar ham rasmiy tashrif bilan O'zbekistonga keldilar. Xu Szintao XXR raisining o'rinbosari sifatida 1995-yilda ham O'zbekistonda bo'lgan. Bundan tashqari, o'tgan davr davomida ikki davlat tashqi ishlar vazirlari, Vazirlar Mahkamasi rahbar xodimlari, Parlament delegatsiyalari va b.ning o'zaro tashriflari amalga oshirildi. 1994-yilda ikki mamlakat o'rtasida tuzilgan savdoiktisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiya doimiy faoliyat ko'rsatib kelmoqda [5].

Xu Szintaoning 2004-yil iyundagi O'zbekiston Respublikasiga tashrifi chog'ida O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasida sheriklik munosabatlari, do'stlik va hamkorlikni yanada rivojlantirish va mustahkamlash to'g'risida ko'shma deklaratsiya, shuningdek, narkotik vositalarning, psixotrop moddalarning noqununiy aylanishi va suiiste'mol etilishiga qarshi kurashda xamkorlik qilishga, texnikaviyiktisodiy hamkorlikka oid bitimlar imzolandi. 2003-yil ikki tomon tovar ayirboshlash hajmi 216 mln. AQSH dollariga teng bo'ldi. Shundan O'zbekistonning XXRga qilgan eksporta 53 mln., importi 163 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. So'nggi yillarda O'zbekiston bozorlarida Xitoy mollarining ko'payganligini kuzatish mumkin. Xitoydan O'zbekistonga texnika, elektronika, elektr jihozlari, kofe, xalq iste'mol mollari, choy va ziravor, optika priborlari va apparatlari, transport vositalari, to'qimachilik mahsulotlari, kiyimkechak, poyabzal va boshqalar keltiriladi. O'zbekiston Xitoyga rangli metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar, mineral yonilg'i, neft va neft mahsulotlari, paxta va ipak tolasi, plastmassa va b. yuboradi. Ayni vaqtda O'zbekistonda Xitoy investorlari ishtirokida tuzilgan 122 korxona ro'yxatdan o'tgan. Shulardan 102 tasi qo'shma korxona, 20 tasi 100% Xitoy sarmoyasi hisobidagi korxonadir. Respublikada Xitoyning savdo hamda Xitoy kompaniyalarining 23 vakolatxonasi faoliyat ko'rsatmoqda. Xitoyning O'zbekistonga kiritilgan sarmoyasi hajmi 435 mln. AQSH dollarini tashkil etadi [6].

Ikki mamlakat o'rtasida madaniyat, fan, texnika va ta'lim sohasida ham hamkorlik rivojlanmoqda. Xitoy vakillari Samarqandda o'tkaziladigan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalida, O'zbekiston folklor jamoalari Pekinda har yili o'tadigan xalqaro madaniyat va turizm festivalida muntazam ishtirok etadilar. 1996-yil Pekinda O'zR Fanlar akademiyasi bilan XXR Fanlar akademiyasi o'rtasida o'zaro hamkorlik to'g'risida, 2000-yil Toshkentda O'zR Fanlar akademiyasi bilan XXR Ijtimoiy FA o'rtasida bitam imzolandi. 1997-yil O'zR Prezidenti I. Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asari Xitoyda xitoy tiliga tarjima kilinib chop etildi. Shu yil O'zbekistonga bag'ishlangan maxsus jur. va 2004-yil kitob nashrdan chikdi. Toshkent bilan Shanxay sh.lari, Buxoro viloyati bilan Xubey provinsiyasi, Toshkent viloyati bilan Shansi provinsiyasi o'rtasida o'zaro hamkorlik munosabatlari o'rnatilgan. 2000-yilda ilmiytexnika

hamkorligi bo'yicha maxsus qo'mita tashkil etilgan. 2001-yil Toshkentda Xitoy madaniy markazi tashkil topdi. 2002-yilda Toshkentda "XXR fani va texnikasi kunlari" deb nomlangan ko'rgazma bo'lib o'tdi. 2003-yil Chanchun (Szilin o'lkasi) sh.da Kamoliddin Behzodning haykali o'rnatildi. 2004-yilda Pekinda O'zbekiston — XXR munosabatlariga bag'ishlangan ilmiy anjuman, Toshkentda xitoy madaniyati kunlari o'tkazildi. Ikki davlat o'rtasida talabalar almashuvi ham amalga oshirilmoqda. 2004-yil iyunda O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan Xitoy ta'lim vazirligi o'rtasida Toshkentda xitoy tilini o'rganish bo'yicha Konfutsiy nomidagi institutni tashkil etish to'g'risida bitim imzolandi [7].

2001-yilda O'zbekiston Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'lgandan beri ushbu tashkilot doirasidagi munosabatlar rivojlanmoqda. Ayniqsa, terrorizmga qarshi kurash va Urta Osiyoda xavfsizlikni ta'minlash sohasida ikki tomonlama hamkorlik kengaymoqda. Mazkur tashkilotning yuridik asoslarini ishlab chiqish va uning amaliy vazifalarini belgilashda O'zbekiston faol ishtirok etdi. 2004. iyunda Toshkentda ushbu tashkilotning navbatdagi sammiti bo'lib o'tdi va unda mintaqaviy aksiterroristik markazning ijroi qo'mitasi rasman ochildi. 2004-yildan O'zbekiston va XXRning SintszyanUyg'ur muxtor rni televideniye kompaniyalari o'rtasida hamkorlik yo'lga qo'yildi. Toshkent telestudiyasi XXR haqida, Urumchi telestudiyasi O'zbekiston haqida ko'rsatuvlar olib bormoqda. Sport sohasida ham ikki davlat o'rtasidagi aloqalar mavjud. Ikki tomonlama hamkorlikning rivojlanishiga 2018-yil 1-dekabrda tuzilgan "O'zbekiston — Xitoy" do'stlik jamiyati munosib hissa qo'shib kelmoqda [8].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мамараджабов, Б. (2023). САУДИЯ АРАБИСТОНИДАГИ ЎЗБЕК МУҲОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/6).
2. Mamarajabov, B. N. M. O. G. (2023). MARKAZIY OSIYODA ARABLAR BILAN BOG'LIQ IJTIMOY QATLAMLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(5), 1048-1052.
3. Mamarajabov, B. N. M. O. G. (2022). ARABISTON YARIM OROLIDA DAVLATCHILIKNING SHAKLLANISHI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10), 118-121.
4. "Jahonning eng yangi tarixi" Toshkent-2018;
5. "Xitoy xalqi tarixi" Xon CHe In 2015-yil;
6. "Xitoy – Yapon urushi" asari Pekin-2013-yil ;
7. "Jahon tarixi" 1945-1991 – yillar , Toshkent-2017;
8. "Xitoy Xalq Respublikasi tarixi" Pekin-2020;